



KATTALAR TA'LIMINING ILMIY TADQIQOT SUBYEKTI SIFATIDA TA'LIM SOHASIDA TUTGAN O'RNI

Itolmasova Z.T.

Qarshi davlat universiteti 1-kurs doktoranti

Tayanch so'zlar: kattalik, pedagogik paradigm, androgogik paradigma, kasbiy faoliyat, ijtimoiy mavqei, "cho'qqilar", o'quv faoliyat.

Ключевые слова: величина, педагогическая парадигма, андрогенная парадигма, профессиональная деятельность, социальный статус, "вершины", учебная деятельность.

Key words: seniority, pedagogical paradigm, androgogic paradigm, professional activity, social status, "peaks", educational activity.

Kirish. Ta'lim sohasini ta'lim xizmatlari sohasiga aylantirishda bugungi kunda aynan kattalarni o'qitish yetakchi rol o'ynaydi. O'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, dunyoning ko'plab mamlakatlari aynan u orqali taraqqiyotga, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka, jamiyat rivojlanishining istiqbollari umid bog'lay boshlandi. Xuddi shu vaqtda ta'limning kelajagi ko'p jihatdan kattalar ta'limini rivojlantirishga bog'liq, degan fikr bildirildi. 1997 yilda Gamburgda o'tkazilgan Kattalar ta'limi bo'yicha V xalqaro anjumanda XXI asrda ushbu soha ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

Kattalar ta'limi ilmiy tadqiqot muammosi sifatida turli jihatlarni: sosiologik, psixologik, pedagogik, metodologik, uslubiy o'z ichiga olgan ko'p omilli, murakkab muammolardan biridir. Bunda o'rganish sub'ekti sifatida kattalarning ijtimoiy va psixofiziologik xususiyatlari muammosi, kattalarning ta'lim faoliyatini belgilovchi shaxsiy mexanizmlar muammosi markaziy o'rin tutadi. Shu sababli birinchi navbatda rivojlanish psixologiyasining konsepsiyasi sifatida "kattalik"ka ta'rif berish kerak.

Kattalik – insonning yosh evolyusiyasining eng muhim va davomiy bosqichi bo'lib, o'rtacha 40 yil davom etadi (o'smirlilik yoshidan boshlab qarilik boshlanishigacha) va samarali mehnat va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini eng to'liq ro'yobga chiqarish bilan tavsiflanadi. Bunda biologik va ijtimoiy

kattalik ko'rsatkichlari shakllanganlik vaqti va darajasi bo'yicha mos kelmasligi mumkin. Organizm taxminan 16-19 yoshda (qizlar uchun avvalroq, o'g'il bolalarda kechroq), inson jismonan baquvvat bo'lib, hayotiy energiya va ijodiy intilishlarga to'la bo'lganda, uning somatik, jinsiy va asab-ruhiy etilishida biologik kattalikka etadi. Bunday etilish to'laqonli mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ob'ektiv psixofiziologik shart-sharoitlarni yaratadi.

Ijtimoiy kattalikning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar hisoblanadi: kasbiy faoliyatni (o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirish bosqichida – o'quv-kasbiy) birinchi o'ringa ko'tarish, o'rganuvchi ijtimoiy holatining (maqomining) o'zgarishi va ushbu omillar ta'sirida mustaqil ravishda qaror qabul qiladigan, o'z xatti-harakatlarini faol tartibga soladigan o'z hayotiy faoliyatining to'laqonli sub'ektining yangi ijtimoiy mavqeining shakllanishi.

Kattalik shakllanish jarayonlari, o'tish davrlari, rivojlanish inqirozlari bilan tavsiflanadi [Ananev, 2001]. Shunday, ushbu davrning boshlang'ich fazasi – o'smirlik – shaxslarning o'zlarini turli kattalar rollarida faol sinab ko'rishlari: kasb tanlash va tez-tez o'zgarib turish, yangi turmush tarziga moslashishga urinishlar, o'z oilasini qurish istagi bilan tavsiflanadi. Keyingi bosqich – yoshlik – bu katta hayotga o'tish davri bo'lib, u har qanday o'tish bosqichi kabi ichki qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi: bir tomondan, mustaqil hayotni boshlagan yoshlar kattalar maqomiga, ijtimoiy-kasbiy funksiyalar va rollarga ega bo'ladi; boshqa tomondan, u hali "kattalar" hayoti tajribasiga ega emas va unga mos keladigan rollar darhol o'zlashtirmaydi, bu alohida vaziyatlarda xatti-harakatlarning jiddiyligi va mas'uliyatining turli darajalarini belgilaydi. Inson tanlovda va qaror qabul qilishda o'zining mustaqilligini ta'kidlash uchun har tomonlama harakat qiladi, lekin u ko'pincha bu tanlovni impulsiv qiladi va qarorlarini tez-tez o'zgartiradi; u o'z mustaqilligining haqiqiy va ko'rinadigan cheklovlarini, noto'g'ri o'ylangan qarorlarining tanqid qilinishni og'riqli his qiladi, bunda uning ichki o'z-o'zini nazorati hali etarlicha rivojlanmagan bo'ladi.

O'z-o'zini tartibga solish qobiliyati, qabul qilingan qarorlarga mas'uliyatni sezish, nafaqat yaqin, balki uzoq maqsadlarga erishishda iroda va qat'iyat – barcha bu fazilatlar inson tomonidan o'z tajribasini oshirib borishi bilan shakllanadi. Uning egallanishi sayin shaxsning o'z-o'zini belgilashi: o'z hayotining ma'nosini anglashi, haqiqiy hayot rejalarini shakllantirishi sodir bo'ladi. Hayot faoliyatining faol va mustaqil sub'ekti bo'lgan ilk katta yoshli inson o'zining shaxsiy pozitsiyasini o'zining bo'lajak amaliy faoliyati prizmasi orqali ko'radigan o'quv jarayoniga o'tkazadi. Bilimlarning shaxsiy ahamiyati



orqali kattaning bilish faoliyatining motivasiyalanganligi, uning faolligi va maqsadga yo'naltirilganligi belgilanadi.

Psixologiya fanida ma'lumki, shaxsning motivasion-qadriyatli sohasi (ehtiyotlar, dasturlar, qadriyatlar) insonning bilish faoliyati negizida yotadi. Mazkur qoida o'qitishning har qanday bosqichlariga taalluqlidir, lekin u kattalarni o'qitishga nisbatan ayniqsa alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kattalarning mustaqil faoliyat, shu jumladan ta'lim faoliyati sub'ekti sifatida o'zi o'z ta'lim maqsadlarini aniqlashga, ushbu jarayonni tartibga solishga va yutuqlarining muvaffaqiyatini baholashga harakat qilishi bilan izohlanadi.

Kattalardagi bilimga bo'lgan ehtiyoj hayot rejalari, dunyoqarashini kengaytirish, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish va madaniy darajasini oshirish istagi bilan belgilanadi. E'tiborga loyiq jihat shundaki, pragmatik motivlar va rejalar hayotga endigina kirib kelayotgan yosh talabalarga ayniqsa xos bo'ladi. Yillar davomida shaxs uchun ta'limning qadriyat mazmuni o'zgaradi va birinchi o'ringa o'z madaniyati va dunyoqarashini rivojlantirish zarurati: hayotning xilma-xil hodisalarini va o'z tajribasini ilmiy tushunish, hayotda shaxsiy pozitsiyani shakllantirish, joriy voqealarga munosabat, olingan bilimlardan o'z amaliy faoliyatida foydalanish chiqadi. Bu turdagi talablar kattalarning ta'lim darajasi, yoshi va kasbiy xususiyatlariga qarab o'z ahamiyatiga ega bo'ladi.

Kattalarning funksional imkoniyatlari va o'rganish qobiliyati muammosi tadqiqotlarda keng va ko'p jihatdan ishlab chiqilgan [Ananev, 2001]. Shaxsning ontogenetik rivojlanishi, eng avvalo, uning psixofiziologik funksiyalarning rivojlanishidan kelib chiqadi. Shu sababli tadqiqotchilar oldiga inson miyasining funksiyalari sifatida neyrodinamika, psixomotorika, shuningdek, diqqat, xotira va fikrlashning yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish vazifasi qo'yiladi. Organizmning umumiy jismoniy etilishi davri, ya'ni 18-20 yosh davri fiziologik salohiyatlarning rivojlanishida "cho'qqilar" bilan tavsiflanadi (organizmning maksimal reaktivligi, arterial bosimning, qonning kislorod bilan to'yinganligi optimal darajalari va shu kabilar), bu esa organizmning ortib borayotgan ishlash qobiliyatidan darak beradi. Xuddi shu yoshga yuqori aqliy funksiyalar – ixtiyoriy e'tibor, xotira, fikrlash rivojlanishidagi ilk "cho'qqilar" ham to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, o'zining funksional imkoniyatlariga ko'ra, kattalikning boshlang'ich davriga kirgan yosh inson mehnat faoliyati sub'ekti sifatida u uchun yangi rolni amalga oshirishga tayyor bo'ladi.

Shunga o'xshash xulosa insonning samarali o'rganishga tayyorligi haqidagi fikrga ko'ra, psixofiziologik funksiyalar rivojlanganligining etarlicha yuqori darajasi inson o'rganishning yuqori salohiyati haqida dalolat beradi, bu holatda mazkur tushuncha ostida insonning ma'lumotni idrok etish, xotirada

saqlab qolish va saqlash hamda turli xil muammolarni hal qilish uchun uni faol ravishda qayta ishlash qobiliyatini anglatadi [B.G. Ananov]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aqliy funksiyalarning dinamikasi, binobarin, kattalarning o'rganishga bo'lgan salohiyati keyinchalik ham umuman pasaymaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda keltirilgan tajriba ma'lumotlari (B.G. Ananov, S.I. Zmeev, Yu.N. Kulyutkin va boshq.) ko'rsatadiki, kattalik davrida inson rivojlanishi bir qator ichki qonuniyatlar bilan tavsiflanadi. Xususan, turli funksiyalarning rivojlanishi notekis va turli vaqtda sodir bo'lishi ma'lum bo'ldi: ba'zi bosqichlarda, masalan, xotira, boshqalarida esa tafakkur tez rivojlanadi. Shuningdek, yosh o'tishi bilan turli funksiyalar yanada o'zaro bog'liq bo'lib, yaxlit tizimga integrasiyalashib, bu esa insonga bir funktsiya (masalan, xotira) rivojlanishidagi kamchiliklarni boshqa (masalan, tafakkur) funktsiyaning yuqori rivojlanishi hisobiga qoplashga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar asosida qilingan eng muhim xulosa shundan iboratki, yoshga bog'liq evolyusiyaning turli bosqichlarida katta yoshli inson intellektining funksional rivojlanish darajasi ancha yuqori bo'lib qoladi. Ushbu funktsiyalar dinamikasida keskin pasayishlarning yo'qligi kattalarning o'rganish qobiliyati sezilarli darajada kamaymasligini anglatadi.

Taqdim etilgan tajriba ma'lumotlari asosan kattalar sub'ektlarining funksional imkoniyatlari, o'rganish qobiliyati salohiyatiga taalluqli bo'lib, bu ularning keyingi rivojlanishini amalga oshirish: atrofdagi dunyoni tushunishni chuqurlashtirish, qarashlar va e'tiqodlarni rivojlantirish, amaliy va nazariy faoliyat usullarini optimallashtirish, ijodiy salohiyatni oshirish imkonini beradi, aynan shu zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning talabi bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, o'quv jarayonida kattalar rivojlanishining asosiy ta'siri shundan iboratki, olingan bilimlar kattalarga o'z hayot yo'lining turli bosqichlarida uning hayot tushunchasini, uning atrofidagi dunyoga qarashlarini boyitish imkonini beradi. Bunday rivojlanishni psixologlar [Kulyutkin 1985: 26] "konseptual" ("funktional" dan farqli ravishda) deb atashadi, chunki u atrofdagi voqealik haqidagi g'oyalar va tushunchalarni kengaytirishda, shaxsning qadriyatlarini va ideallarini chuqurlashtirishda, uning amaliy faoliyat usullarini takomillashtirishda ifodalanadi. Bunday konseptual rivojlanishga intilish kattalar uchun o'rganishning ma'nosi va ahamiyatini belgilab beradi.

Tahlil va natijalar. Yoshi katta tahsil oluvchilarning bunday rivojlanishi yanada umumiyroq ta'sirda ularning o'quv faoliyatini o'zlashtirishida, ularni mustaqil ravishda rejalashtirish, amalga oshirish va tartibga solish



qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bu holatda shaxsning aqliy mustaqilligi va axloqiy-dunyoqarash pozitsiyasi rivojlanishi, uning mustaqil ta'limga, bilishga va muloqotga tayyorligi haqida gapirilmogda. Ana shu ko'nikma, malkalar va fazilatlarni shakllantirishga andragogik ta'lim paradigmasi va o'qitish texnologiyasi qaratilgan.

Ko'rsatilgan paradigmada o'quv jarayonini uning barcha bosqichlarida tashkil etishda etakchi rol o'quv jarayonining faol, teng huquqli sub'ektlari sifatida o'quvchilarning o'ziga tegishli bo'lib, ular o'z bilim olish jarayonida, ushbu jarayon parametrlarini aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'qituvchining vazifasi, pirovardida, katta yoshdagi talabani o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshirish yo'nalishida qo'llab-quvvatlash, unga o'rganish va ma'lumot qidirish parametrlarini aniqlashda yordam berishdan iborat. Shu sababli bu erda o'qitish texnologiyasida talabalar tajribasidan foydalanadigan shakllar: tajriba, ijodiylik, loyiha ishi, muhokamalar, kasbiy muloqotning haqiqiy vaziyatlarini modellashtiruvchi turli xil o'yin faoliyati turlari va shu kabi mashg'ulotlarning asosiy shakllari bo'ladi.

Ko'rib chiqilayotgan paradigmada butun o'quv jarayoni ta'lim jarayoni ishtirokchilarining birgalikdagi faoliyatiga asoslanadi: uning barcha bosqichlarida o'rgatuvchi o'rganuvchi bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil qiladi, u esa mazkur faoliyatda faol ishtirok etadi. Tahsil oluvchilarning ushbu motivasion maqsadlari ularni o'qitishning (shu jumladan nutq) mazmuni va tuzilishining xususiyatlarini belgilab beradi: bu holatda o'quv dasturlari tahsil oluvchilar kompetensiyasining ma'lum jihatlarini shakllantirishga mazmunli yo'naltirilgan bo'lishi, ularga muayyan hayot va kasbiy vazifalar echimlarini taqdim etishi kerak; ushbu dasturlar bo'yicha tashkil etilgan o'quv kurslari kompetensiyaning ko'rsatilgan jihatlarini (shu jumladan muloqot va nutqiy) shakllantirishni aks ettiruvchi blok-modul tamoyiliga muvofiq tuzilishi kerak.

Andragogik paradigma texnologiyasi katta yoshdagi tahsil oluvchilarni o'qitishning motivasion bazasini tavsiflovchi ilgari muhokama qilingan fikrlarga asoslanadi. Ushbu fikrlar katta yoshdagi tahsil oluvchilarning psixofiziologik va ijtimoiy-kasbiy xususiyatlariga, ularni o'qitishning maqsadlari va shartlariga asoslanadi. Ijtimoiy-kasbiy xususiyatlar o'rganishning katta sub'ektlarini katta bo'lmagan tahsil oluvchilardan ajratib turadigan beshta asosiy ijtimoiy shakllantiruvchi xususiyat bilan belgilanadi:

- o'zini mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan shaxs sifatida anglash;
- tobora ko'proq hayotiy (maishiy, kasbiy, ijtimoiy) tajriba to'plash va undan o'rganishning muhim manbai sifatida foydalanish;

- o‘quv faoliyati yordamida o‘zining hayotiy muhim muammolarini hal qilish va aniq maqsadlarga erishishga intilish;
- o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malaka va fazilatlarini tezda amalga oshirishga intilish;
- o‘quv faoliyatning vaqt, fazoviy, maishiy, kasbiy, ijtimoiy omillar (holatlar) bilan shartlanganligi.

Kattalarni o‘qitishning maqsadlari, odatda muayyan, aniq, sanab o‘tilgan kasbiy, ijtimoiy-psixologik, kundalik, shaxsiy muammolar yoki omillar yoki shartlar bilan chambarchas bog‘liq, olingan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va fazilatlarini qo‘llash imkoniyati to‘g‘risida etarlicha aniq g‘oyalarga ega bo‘ladi. Kattalarni o‘qitish ta‘lim sharoitlari, odatda, yuqorida qayd etilgan, o‘rganishga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan, lekin ko‘p hollarda, xususan, o‘qish va mehnatni birlashtirganda ushbu jarayonni murakkablashtiradigan va uni notekis qiladigan omillar bilan belgilanadi.

Kattalarni o‘qitishning sanab o‘tilgan tamoyillari pedagogikaning didaktik tamoyillari bilan qisman korrelyasiyalanadi (masalan, ta‘lim ehtiyojlarini rivojlantirish, individuallashtirish yoki tajribaga tayanish). Ularning pedagogik tamoyillardan asosiy farqi shundaki, ular birinchi navbatda o‘qitish jarayonini tashkil etish bo‘yicha o‘rganuvchilarning faoliyatini belgilaydi, pedagogik tamoyillar esa asosan o‘rgatuvchi faoliyatini tartibga soladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida aytib o‘tilgan o‘qitishning andragonik tamoyillari kattalarni o‘qitish texnologiyasining nazariy bazasini – katta yoshdagi o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilarning andragogik asoslangan harakatlari tizimini tashkil qilib, ularni amalga oshirish belgilangan ta‘lim maqsadlariga erishishga olib keladi. Tuzilma jihatdan mazkur texnologiya katta yoshdagi o‘rgatuvchilar va o‘rganuvchilar tomonidan o‘quv jarayonining har bir bosqichida ushbu jarayon ishtirokchilarining ilgari muhokama qilingan barcha ijtimoiy va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan harakatlar va funksiyalar tizimini tashkil qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ананьев Б.Г. «Психология чувственного познания» — 2001 г.
2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания – 2001 г.
3. Кулюткин Ю.Н. Психология обучения взрослых – 1985 – 26 ст.
4. Вербицкий А.А. Новая образовательная парадигма и контекстное обучение – 1999 г.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada ta‘lim sohasida kattalar ta‘limining tutgan o‘rni va uning ilmiy tadqiqot muommosi sifatida ahamiyati, pedagogik va androgogik paradigmalar o‘rtasidagi tafovutlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, androgogik paradigma, oliy ta‘lim tizimida hamda uzluksiz kasb-hunar ta‘limi tizimida kattalarni o‘qitish va ularning kasbiy-kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish tizimi



borasida fikrlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, kattalar ta'limi ilmiy tadqiqot muammosi sifatida turli jihatlarni: sosiologik, psixologik, pedagogik, metodologik, uslubiy o'z ichiga olgan ko'p omilli va bunda o'rganish subyekti sifatida kattalarning ijtimoiy va psixofiziologik xususiyatlari muammosi, kattalarning ta'lim faoliyatini belgilovchi shaxsiy mexanizmlar muammosi sifatida qaralishi keltirib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматривается роль образования взрослых в сфере образования и его значение как исследовательской проблемы, а также различия между педагогической и андрогенной парадигмами. Также были высказаны мысли об андрогенной парадигме, системе обучения взрослых и формирования их профессионально-коммуникативных и социальных компетенций в системе высшего образования и непрерывного профессионального образования. Кроме того, образование взрослых как проблема научного исследования является многофакторным, включающим в себя различные аспекты: социологический, психологический, педагогический, методологический, методический, и в нем приводится рассмотрение проблемы социально-психофизиологических особенностей взрослого как субъекта исследования, проблемы личностных механизмов, определяющих учебную деятельность взрослого.

SUMMARY

This article discusses the role of adult education in education and its importance as a scientific research treatment, and the discrepancies between pedagogical and androgical paradigms. Opinions have also been cited on the androgic paradigm, the system of education of adults in the higher education system and the system of formation of their professional-communicative and social competencies in the system of continuous vocational education. In addition, adult education has been cited as a scientific research problem as a multifactorial, containing various aspects: sociological, psychological, pedagogical, methodological, methodological, and in this, as a subject of study, the problem of social and psychophysiological characteristics of adults is considered as a problem of personal mechanisms that determine the educational activities of adults.